

**PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA – BARKAMOL INSONNI SHAKLLANTIRISH  
FAOLIYATI****Shaxnoza Muxtarova,**Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institute, O‘zbek tilshunosligi kafedrasи  
o‘qituvchisi**Humoyun Umaraliyev**

Chirchiq davlat pedagogika institute, Gumanitar fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

[khumoyunumaraliev@gmail.com](mailto:khumoyunumaraliev@gmail.com)

**Annotatsiya.** Bu maqolada pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat to`g`risida fikr yuritilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Maqolada ta’lim samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin bo‘lgan interfaol metodlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik texnologiya, noan’anaviy dars, zamonaviy pedagog, interaktiv metod, “Charxpalak” texnologiyasi, innovatsiya.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются педагогические технологии, педагогическое мастерство. Современная педагогическая технология является продуктом развития современной дидактики и педагогики. В статье представлены интерактивные методы, которые можно использовать для повышения эффективности обучения.

**Ключевые слова:** педагогическая технология, нетрадиционные уроки, современный педагог, интерактивный метод, технология “Чархпалак”, инновации.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o‘z navbatida o‘quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o‘zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko‘pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog’liq.

Pedagogik texnologiya – 1) ilmiylikka asoslangan holda vaqt va makonga nisbatan dasturlashtirilgan, muayyan belgilangan natijaga olib keluvchi, pedagogik jarayonlarga oid komponentlarning barchasini birdek ishga soluvchi tizim; 2) butun o‘qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o‘zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodikasi.

“Texnologiya” atamasi yunoncha “techno” va “logos” so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, “hunar yoki fanni o‘rganish” degan ma’noni anglatadi. Atama texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ilk bor 1872-yilda muomalaga kiritilgan. Mazkur tushuncha bugungi kunda mazmun va mohiyatiga ko‘ra turli fan va sohalarda ham keng qo‘llanilmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga dastlab o‘quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish sifatida qaralgan. O‘tgan asrning 70-yillariga kelib pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha

mohiyati tamoman yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi Sakomoto “pedagogik texnologiya” tushunchasiga o‘quv texnologiyalari” – o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlovchi yo‘l-yo‘riqlar bilan bog‘liq bilimlar majmuasidir” deya yangi ta’rif berdi.

Pedagogik texnologiya o‘quvchiga ta’lim jarayonining subyekti, ya’ni faol ishtirokchisi, o‘qituvchiga esa shu jarayonning tashkilotchisi, boshqaruvchisi sifatida qarashni taqozo etadi. Darsda o‘quvchi faol ishlovchi shaxs bo‘lib, u butun mashg‘ulot jarayonida egallagan bilimlarini xotirada tiklaydi, uni qisman yangi sharoitlarda qo‘llaydi, aqliy faoliyat usullarini bajarib, ma’lumdan noma’lumga qarab boradi. Pedagogik texnologiya asosida dars o‘tishda eng asosiy talab o‘quvchining hayotiy tajribasi, avval o‘zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko‘zda tutadi.

Yangi pedagogik texnologiya bo‘yicha o‘qtishda quyidagilar ta’limning asosiy parametrlari hisoblanadi;

1. Butun o‘quv vaziyati boshqarish obyekti sanaladi.

2. Ta’limni boshqarish maqsadli bo‘lib, o‘quvchining mohiyatli, ma’naviy va ruhiy kuchlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

3. Ta’lim jarayoni demokratik, rang-baranglashtiruvchi uslubda bajrailadi.

4. Ta’lim jarayonining zaruriy sharti o‘quvchining shaxsiy tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchi shaxsining ochiqligi, ularning hamkorligi, o‘zaro ishonchli munosabatlarni vujudga keltirishdan iborat.

Pedagogik texnologiya o‘ziga xos tamoyillarga ega va ular quyidagilar:

1. Muayyan dars, mavzu, qism, o‘quv predmetidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish.

2. Umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o‘quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsadni va modullar ichida hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar tizimini aniqlash.

3. Modul ichida yechiladigan masalalarning har biri bo‘yicha test savollarini tuzish.

4. Maqsadlarga yetish usullari tanlanib, ularni ishlataladigan aniq joylarni belgilash.

5. Dars qismlari orasida zaruriy bog‘liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e’tibor qaratish.

Yangi pedagogik texnologiyani ta’lim jarayoniga olib kirish davr talabidir. Buning uchun o‘qituvchi ijodkor bo‘lishi, yangi pedagogik texnologiyaning xilma-xil shakllarini yarata olishi, ularni ta’lim jarayonida qo‘llay olishi lozim. Har bir darsni o‘ziga xos usul asosida o‘tish, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o‘z darslarida qo‘llasa, albatta, ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o‘qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta’lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta’minalash, mustaqil fikrashga o‘rgatish, bilim va hayotiy ko‘nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o‘tilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo‘llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida

qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi.

Ko‘p yillar davomida an’naviy dars o‘tish ta’limning asosiy shakllaridan biri bo‘lib keldi. An’naviy darsda o‘qituvchi faol, o‘quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o‘quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan’naviy tarzda mazmunli tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minalashni taqozo etadi. Ta’limda o‘quvchilarga ma’lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o‘zi bugungi kunda yetarli bo‘lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg‘otish, mustaqil bilim olish ishtiyоqini hosil qilish, integratsiya asosida ta’lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ta’lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi - o‘quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o‘zlashtirishda faollik ko‘rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta’limda aniq samarador natijaga erishishdir. Noan’naviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg‘ulot turidir. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to‘qnashuvi yuzaga keladi. O‘quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog‘onaga ko‘tariladi. O‘qituvchi shu tarzda o‘quvchilarni faollashtiradi, o‘zlashtirishi past o‘quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi. Ta’lim uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, uning sifati darsda qo‘llanilgan metodlarga bog‘liq. Darsning mazmunli o‘tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o‘qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to‘g‘ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o‘qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o‘tishni talab etadi. Buning uchun o‘qituvchi doimo o‘z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo‘lishi va o‘z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo‘lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o‘quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergan. Keng qo‘llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so‘rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyg‘a vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBB” metodlarini qo‘llash dars samaradorligini ta’minlab, o‘quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o‘tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo‘q”, “Ta’rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin.

O‘yin vaqtida o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o‘quvchida ishonch, qat’iyat paydo bo‘ladi. Munozaraga kirishishni o‘rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asaosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiatи va sharoitga qarab tanlanadi.

“Charxpalak”. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berish va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishslash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo‘lim tugallanganda o‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo‘ljallangan.

“Charxpalak” texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o‘quvchilar sharoitga qarab guruhlarga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a‘zolariga tarqatiladi;

-belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o‘ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o‘zining ramziy belgisini qo‘yib ushbu tarqatmani keying guruhga “charxpalak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiradilar;

-boshqa guruh a‘zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o‘zgartirishlar kiritadilar;

-materialning oxirgi almashishidan so‘ng har bir guruh o‘zi ilk bor to‘ldirgan tarqatmani o‘z ramziy belgisini asosida tanlab oladi;

-o‘qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda to‘g‘ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagи vazifalar ekranda yoritilib, to‘g‘ri javob aytib o‘tiladi;

-har bir o‘quvchi to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o‘zlarini baholaydilar.

“Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda mashg‘ulot o‘tkazish uchun o‘quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin:

Mavzu: So‘z ma’nosining ko‘chish usullari.

Vazifa: Berilgan gaplardagi ma’no ko‘chish usullarini aniqlab, tegishli katakka “+” yoki “\*” belgisini qo‘ying. Baholash:

9-10 ta to‘g‘ri javob – “a’lo”

7-8 ta to‘g‘ri javob – “yaxshi”

6 ta to‘g‘ri javob – “qoniqarli”

Hozirgi ta‘lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va

tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarining mustaqil fikrlash, tahsil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda uzlusiz ta’lim tizimida o‘qitish samaradorligini oshirishning muhim sharti-ta’lim jarayoniga tizimli yondashuv va rang-barang pedagogik faoliyatdan iborat xizmat ko‘rsatish sanaladi. Ayni davrda, zamonaviy pedagogik texnologiya — tizimli yondashuvlar asosida o‘qitishning shakllarini qulaylashtirish, uning natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun zarur bo‘lgan inson salohiyati hamda texnik vositalarning o‘zaro hamkorligini namoyish qiladi. Ta’lim maqsadlarini oydinlashtirish, o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonlarida qo‘llaniladigan usul, metod va vositalarlami xilma-xillash, ta’lim va tarbiya jarayonlari mazmunini chuqurlashtirish - bular hammasi ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish demakdir. Vaholanki, takomillashtirishning chegarasi, ya’ni oxiri yo‘q, deyiladi. Shunday bo‘lgach, pedagogik texnologiyalar ham, pedagogik mahorat ham sarhadsiz tushunchalardir. Bu borada qancha ko‘p izlanilsa va qanchalik tashabbuskorlik bo‘lsa - shunchalik kamdek tuyulaveradi. O‘qitishning eng oddiy va bosh haqiqati ham ana shundadir.

Ushbu maqolada keltirilgan zamonaviy metodlar o‘quvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Pedagogika ensiklopediya”. I jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent - 2015.
2. “Yangi pedagogik texnologiyalar”. Ochilov M., Qarshi. “Nasaf”. 2000.
3. “Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahorat”. H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Toshkent - 2009.